

O'ZBEKISTON VA YEVRO OSIYO IQTISODIY ITTIFOQI (YeOII)NING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Kilicheva Madina Xasanovna

Zarafshon sanoat texnikumi o'qituvchisi

Seytmuratova Saadat O'serbayevna

Karmana tumani Kasb hunar maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *O'zbekiston va YeOII ni mustahkamlashda endilikda sanoat kooperatsiyasi nafaqat ikkitomonlama hamkorlik, balki ko'ptomonlama mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar boshlangan. Bundan asosiy maqsad har bir a'zo davlatni salohiyatidan kelib chiqqan holda, sanoat kooperatsiyasi jarayonini yanada tezlashtirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish, o'zaro yangi innovatsion texnologiyalar va izlanmalar bo'yicha almashinuvlarni tizimli yo'lga qo'yish, shuningdek, ko'ptomonlama investitsion loyihalarni amalga oshirishdir.*

Kalit so'zlar: *Yevro Osiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YeOII), tashqi savdosi aylanmasi, Erkin savdo hududi, YaIM, Integratsiya, Investitsiyalar, Texnologiyalar, BMT, Jahon savdo tashkiloti, Preferensiyalarining bosh tizimi (PBT).*

Annotation: *In strengthening Uzbekistan and the Republic of Uzbekistan, practical efforts have now begun to develop industrial cooperation not only bilateral cooperation, but also multilateral regional cooperation. The main goal of this is to further accelerate the process of industrial cooperation and increase the competitiveness of manufactured products, based on the potential of each member state, to systematically establish mutual exchanges on new innovative technologies and research, as well as to 'ptomonlama is the implementation of investment projects.*

Key words: *Euro-Asian Economic Union (EAEU), foreign trade turnover, Free Trade Area, GDP, Integration, Investments, Technologies, UN, World Trade Organization, General System of Preferences (PBT).*

KIRISH

O'zbekistonning YeOII bilan hamkorlik qilishining sezilarli faollashishi, jumladan, tashkilot huzuridagi kuzatuvchi maqomini olishi har tomonlama mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ustuvor va dolzarb vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

O'zbekistonning YeOII bilan hamkorlik qilishining sezilarli faollashishi, jumladan, tashkilot huzuridagi kuzatuvchi maqomini olishi har tomonlama mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradi hamda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi ustuvor va dolzarb vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi. Buni qo'yidagi omillar orqali ko'rsatib o'tish mumkin.

Birinchidan, YOII mintaqada katta iqtisodiy salohiyatga ega va rivojlanib borayotgan tuzilmalar safiga kiradi. Xususan, ittifoq aholisi soni 185 million nafar, a'zo mamlakatlar hududi dunyo yer maydonining 14 foizini egallaydi. Butun dunyo tabiiy gaz zaxiralarining 20 foizi, uning eksportining 50 foizi, neft zaxiralarining 8 foizi va eksportining – 18 foizi, ko'mir zaxiralarning 22 foizi, jahonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining 5,1 foizi Ittifoqqa a'zo davlatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Qayd etish lozimki, ittifoq iqtisodiyotining muhim tarmoqlari jadallik bilan modernizatsiya qilinib, texnologik va yuqori qiymat qo'shilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilmoqda. Jumladan, 2019 yilda YeOII da sanoat ishlab chiqarish hajmi 1,2 trillion dollarini tashkil etdi (2018 yilga nisbatan 2,5% o'sish). Canoatda qayta ishlash mahsulot hajmi 2018 yilga nisbatan 13,8 foiz o'sish qayd etildi. Shu bilan birga ittifoq davlatlari o'rtasida sanoat mahsulotlarining savdo aylanmasi 2018 yilga nisbatan 34,1 foizga oshdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqish va qayta ishlash hajmi 2019 yilda 120 milliard dollarni tashkil qildi (2018 yilga nisbatan 3,4% o'sish qayd qilindi). Ittifoq hududida o'zaro tovar aylanmasi o'tgan 5 yilda 35 foizga oshib, 2019 yilda 62 milliard dollarga yetdi. YeOII chet davlatlar bilan tashqi savdosi aylanmasi 2019 yilda 733,1 milliard dollarni tashkil qildi (eksport 459,3 milliard dollar, import – 273,8 milliard dollar).

Ushbu ijobiy iqtisodiy tendensiyalar o'z navbatida xorijiy mamlakatlarning YeOII bilan hamkorlikni faollashtirishga qiziqishi ortishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi savdo-iqtisodiy hamkorlik o'rnatish bo'yicha Erkin savdo hududi (ESH) to'g'risidagi shartnomalar imzolash orqali uchinchi mamlakatlar bilan ham hamkorlik qiladi.

Bugungi kunga qadar YeOII erkin savdo hududi to'g'risida Vetnam (2016 y.), Singapur (2018 y.), Eron (2018 y.), Serbiya (2019 y.) bilan shartnomalar imzolangan. Shuningdek YeOII va Xitoy o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim bo'yicha muzokaralar yakunlandi.

YeOII bilan erkin savdo hududi va hamkorlik to'g'risida memorandumlar imzolagan uchinchi mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti 29,6 trillion dollarni (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha) yoki jahon yalpi ichki mahsulotining 23,2 foizini tashkil etadi. Ittifoqning tashqi sheriklari yalpi ichki mahsuloti hajmi 43,9 trillion dollardan iborat (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha), bu o'z navbatida jahon yalpi ichki mahsulotining 34,3 foiziga to'g'ri keladi.

Ushbu salohiyat o'z navbatida ittifoqni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga zamin yaratmoqda. Xususan, 2021 yil yakunlariga ko'ra YeOII yalpi ichki

mahsuloti, tashkilot tuzilgan 2019 yilga nisbatan 21 foizga oshib, 1,9 trillion dollarni tashkil etdi. Misol uchun Armaniston YaIM 2015 yilda 10,5 milliard dollar bo'lsa, 2021 yilga kelib 13,6 milliard dollarga yetdi (22% o'sgan). Qirg'izistonda esa ushbu davr oralig'ida YaIM 6,6 mlrd. dollardan 8,4 milliard dollarga ko'paygan (21% ga ortgan).

Butun Ittifoqda aholi jon boshiga YaIM 2019-2021 yillarda 16% o'sgan (8913 dollardan 10683 dollarga), asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 19% oshgan, ishsizlik darajasi esa 12% kamaygan.

Ikkinchidan, YeOII mamlakatlari geografik joylashuvi va tarixiy aloqalar nuqtai-nazardan O'zbekistonning asosiy, tabiiy savdo sheriklaridir. Shundan kelib chiqqan holda so'nggi yillarda O'zbekiston YeOIIga a'zo-davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirib bormoqda. O'z o'rnida O'zbekistonning tanlagan iqtisodiy rivojlanish yo'li xalqaro va mintaqaviy birlashmalar, shu jumladan YeOII bilan samarali hamkorlikni kuchaytirishni taqozo etadi.

Bu, bir tomondan, ushbu Ittifoqda o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarimiz tobora kengayib borayotgan strategik hamkorlarimiz bo'lgan Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlarining a'zo ekanligi, ikkinchi tomondan – kengroq iqtisodiy makonda mahsulotlarimiz raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratilishi bilan bog'liq.

Misol uchun, 2019-2021 yillarda O'zbekistonning YeOIIga a'zo- davlatlar bilan umumiy tovar ayirboshlash hajmi yiliga 26 foizga oshib, qariyb 10 milliard dollarga yetdi. Bugungi kunda O'zbekistonning YeOII bilan tashqi savdosidagi ulushi deyarli 30%, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmi esa 75% dan ortiqni tashkil qiladi. Bundan tashqari, O'zbekiston tashqi savdo yuklarining 80% YeOII davlatlari hududi orqali o'tadi.

Uchinchidan, eng muhim omillardan biri – bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi o'zining tarixiy rivojlanishining muhim bosqichini bosib o'tmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimiz barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash maqsadida iqtisodiyotni modernizatsiyalash, investitsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va nou- xaularni joriy qilishga mo'ljallangan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib, yangi istiqbolli bozorlarga chiqish bo'yicha harakatlar olib borilmoqda. O'z navbatida, yuqoridagi vazifalarning YeOII doirasida ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanganligi ushbu tashkilot bilan faol hamkorlik qilishni taqozo etadi.

Xususan YeOII da 2025 yilga qadar O'zbekiston uchun dolzarb bo'lgan qo'yidagi yo'nalishlar bo'yicha umumiy, uyg'unlashgan bozor va makon tashkil qilish, shuningdek, iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish rejalashtirilgan.

Birinchidan, ittifoq hududida energoresurslarning, jumladan gaz, neft va neft mahsulotlarining umumiy bozorini shakllantirish ko'zda tutilgan. Bunda YeOII a'zo davlatlarning energetika kompaniyalari gaz, neft va elektroenergiyani cheklovlarsiz, birja auksionlarida shakllangan bozor narxlari bo'yicha yetkazib berish ko'zda tutilgan.

Mutaxassislarning fikricha, energoresurslarning umumiy bozori tashkil qilinishi YeOII davlatlari iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga, aholining turmush farovonligini oshirishga, shuningdek, energetik xavfsizlikni mustahkamlashga va jahon bozorida Ittifoq hududida ishlab chiqarilgan tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Ikkinchidan, YeOII hududida yagona transport makonini shakllantirish. Uyg'unlashgan transport siyosati doirasida quyidagi maqsadlar ko'zlangan: 1) umumiy transport-logistika xizmati bozorini shakllantirish; 2) Yevroosiyo hududidagi transport koridorlarni salohiyatini oshirish va yangi koridorlar tashkil qilish; 3) transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha umumiy takliflarni ishlab chiqish va zamonaviy logistika markazlarini yaratish. Transport- logistika sohasini rivojlantirilishi ekspertlarning ta'kidlashicha, YeIIO hududida tovar, xizmat, kapital hamda fuqarolarni hech qanday to'siqlarsiz aylanishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Shu o'rinda aytish lozimki, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni barqaror sur'atlarini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish hamda iqlim o'zgarishlariga moslashishga uchun transport va energetika sohasini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Xususan, Osiyo taraqqiyot banking ma'lumotlariga ko'ra, Osiyo mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlar ushbu maqsadlarga erishishi uchun 2030 yilga qadar 14,7 trillion dollarni elektroenergiya sohasiga, 8,4 trillion dollar transport-logistikani rivojlantirishga yo'naltirishlari lozim. O'z navbatida, YeOII umumiy energetika bozori hamda yagona transport makoniga O'zbekistonni integratsiyalashuvi nafaqat ushbu sohalardagi hamkorlikni kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan mavjud muammolarni yechishga, shu bilan birga, energoresurslardan keng foydalanish imkoniyatini, hamda investitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilishga imkon yaratadi.

Jumladan, O'zbekistonning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda yangi transport marshrutlarini yaratish va transport-logistika sohasini modernizatsiyalash orqali mahsulotlarni yirik tashqi bozorlarga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston geografik nuqtai nazardan dengiz portlardan uzoqda joylashganligi sababli mahsulotlarni eksport qilishda transport-logistika xarajatlari 10-15 foizni tashkil qiladi, yuk tashuvchilarning yo'ldagi 40 foiz vaqti esa bojxonadagi to'siqlarda ketadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, Yevrosiyo mintaqasida yuklar tranzitida uyg'unlashgan tariflarni qo'llash natijasida ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilarni xarajatlari 221 million dollarga qisqaradi, va bu, o'z navbatida, eksport va import mahsulot tannarxi kamayishiga olib keladi.

Uchinchidan, ittifoq hududida umumiy moliya bozorini tashkil qilish. YeOII da samarali moliyaviy bozorni shakllantirish maqsadida a'zo davlatlar 2025 yilga kelib: a) milliy qonunchilikni va uni qo'llash amaliyotini uyg'unlashtirish; b) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishni takomillashtirish; v) iqtisodiyotning real sektoridagi korxonalarini kreditlash hajmini oshirish; g) iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish kabi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirib, barqaror rivojlanish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligi sohasida uyg'unlashgan siyosat yuritilishini ta'minlash. Bugungi kunda YeOII a'zo davlatlari qishloq xo'jaligi sohasidagi turlicha iqtisodiy mexanizmlarni (kreditlash va subsidiyalar taqdim qilish, narxlarni tartibga solish, sug'urta, soliqqa tortish) amalga oshirmoqda. YeOII makonida agrar sohasidagi

ma'muriy to'siqlarni olib tashlash, mavjud iqtisodiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish, bojxona regulyasiyasini soddalashtirish, veterinariya va fitosanitariya nazoratining yagona qoidalariga amal qilish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'zaro savdo hajmini oshirish hamda boshqa davlatlarga qishloq xo'jaligi mahsulotini eksportini oshirish maqsad qilingan.

Shu bilan birga, Ittifoqda biotexnologiya, organik mahsulotlar va yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqish, shuningdek, global iqlim o'zgarishiga moslashish va genetik jihatdan modifikatsiyalangan mahsulotlarni yaratish sohasidagi izlanishlar olib borish istiqbolli yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Beshinchidan, hududlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va yagona innovatsion makon yaratish. YeOII da endilikda sanoat kooperatsiyasida nafaqat ikkitomonlama hamkorlik, balki ko'ptomonlama mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy harakatlar boshlangan. Bundan asosiy maqsad har bir a'zo-davlatni salohiyatidan kelib chiqqan holda, sanoat kooperatsiyasi jarayonini yanada tezlashtirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish, o'zaro yangi innovatsion texnologiyalar va izlanmalar bo'yicha almashinuvlarni tizimli yo'lga qo'yish, shuningdek, ko'ptomonlama investitsion loyihalarni amalga oshirishdir. Hozirgi kunda YeOII doirasida sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish maqsadida "YeOII sanoat kooperatsiyasi va texnologiyalar transferi tarmog'i"ning maxsus raqamli platformasi yaratilgan. Ushbu platforma YeOII a'zo davlatlar hududida joylashgan korxonalar va mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, mavjud innovatsion ishlanmalar va texnologiyalar yordamida texnologik ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish hamda yagona raqamli ekosistema yordamida mahsulotlarni eksport qilishga xizmat qilmoqda.

O'z o'rnida aytib o'tish lozimki, yangi innovatsion va texnologik kashfiyotlarni yaratish uzoq muddatli ilmiy izlanishlar hamda katta mablag'larni talab qilishi sababli, ittifoqdosh davlatlar mavjud izlanmalardan hamkorlikda foydalanishdan manfaatdordir. Xususan, BMTning Yevropa iqtisodiy komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, davlatlararo sanoat kooperatsiyasi natijasida yangi mahsulot ishlab chiqarish jarayoni 14-20 oy muddatga qisqaradi, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish xarajatlari esa 50-70% kamayadi. Ta'kidlab o'tish lozimki, Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi tomonidan, 2022 yilga qadar YeOII davlatlari hududida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan umumiy qiymati 777 mlrd. dollarlik 622 yirik investitsion loyihalar ishlab chiqilgan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan omillardan ko'rinib turibdiki, milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston va YeOII o'rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirish uchun o'zaro istiqbolli yo'nalishlar mavjud.

Shu o'rinda YeOII bilan hamkorlik O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining mantiqiy davomi ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoi-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari aniq belgilangan, pragmatizm va

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda, yaqin va uzoq xoriydagi barcha mamlakatlar hamda tashkilotlar bilan sheriklik aloqalarini mustahkamlamoqda.

Xususan, O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga kirishi bo'yicha harakatlarni jadallashtirdi, o'zaro savdo uchun yanada qulay sharoitlar yaratish va tashqi savdo rejimini maqbullashtirish maqsadida Yevropa Ittifoqi bilan bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitim bo'yicha muzokaralar, shuningdek, Preferensiyalarining bosh tizimiga ("PBT+") qo'shilishi doirasida yakuniy ishlar olib borilyapti.

O'z o'rnida, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samaradorligi, ko'p jihatdan, jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashishga, ayniqsa, hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga bog'liqdir.

Ta'kidlash lozimki, ushbu omil ayniqsa pandemiya davrida juda dolzarb masalaga aylandi. Pandemiya juda ko'plab davlatlar iqtisodiyotining barcha sohalariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Xususan, ta'minot zanjirlari uzilib qoldi, mehnat bozori zarar ko'rdi, qator korxonalar o'z faoliyatini to'xtatdi, transport tashuvlari kamaydi.

Pandemiya saboqlari umumiy sa'y-harakatlarni faollashtirishga undaydi. Ushbu vaziyatda xalqaro ekspertlar mintaqaviy jarayonlar kuchayishi va mintaqaviy tuzilmalar ahamiyati oshishini taxmin qilmoqda. Bunday inqirozli vaziyatlarda ustunlik global savdo munosabatlari zanjiri uzilishi muammosini samaraliroq hal qiladigan, milliy iqtisodiyotlar uchun "yelkadosh" vazifasini o'tab beruvchi ixcham mintaqaviy bozorlarga beriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, endilikda kuzatuvchi davlat maqomini olgan O'zbekistonga YeOIIning a'zolari va hamkor davlatlari bilan muloqotni mustahkamlash, tashkilotning dasturiy va shartnomaviy organlari hujjatlarini amalda tatbiq etilishini yanada chuqurroq o'rganish, a'zo davlatlarning o'zaro hamkorlik mexanizmlari, qaror qabul qilish jarayoni, mavjud me'yoriy- huquqiy baza va uni qo'llash amaliyoti kabi muhim jarayonlar bilan tanishish imkoniyatini yaratildi.

Shu bilan birga, ushbu integratsion tuzilmada kuzatuvchi bo'lish iqtisodiy sohadagi mavjud qonunchiligimizni YeOII talab va qoidalariga muvofiqlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy hamkorligini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5903-sonli Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-4691756?ONDATE>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash

chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF-5975-sonli Farmoni //https://lex.uz/docs/4776669

3. *Ekonomika truda. V 2 ch. CHast 1 : uchebnik i praktikum dlya bakalavriata i magistratury / I. M. Aliev, N. A. Gorelov, L. O. Ilina. — 3-e izd., pererab. i dop. — M. : Izdatelstvo YUrayt, 2016. — 74 s.*

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 dekabrdaqi "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-4069- sonli Qarori.// Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 15 dekabrdaqi "Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar raqobatdoshligini ta'minlash va eksportini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5286-sonli Farmoni.// Lex.uz. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

6. Vaxabov A.V. *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar: o'quv qo'lanma. - T.: «Voriz-nashriyot», 2014. -320 bet.*

7. www.lex.uz

8. www.stat.uz